


101. Sonli nur yordamida qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:
balet.


Nur, bo'linish, masofa.




1. Baletda aniq raqs sur'atini saqlab qolish muhim. Sahnaning kengligi qanday? Hozir har bir raqqosa sahnaning chap chekkasidan qanday masofada turibdi? O'ng chekkasidan-chi?



2. Raqqosa raqsning boshlanishida qayerda turibdi? Agar u:
a) o'ng tomonga 7 m yursa;
b) chap tomonga 3 m ga sakrasa, qaysi nuqtaga borib qoladi?
Uning harakatlarini matematik tilda qanday yozish mumkin?



Sonli nur (koordinata nuri)dagi harakat matematik amallar – qo'shish yoki ayirish bilan ifodalanadi.



101. Sonli nur yordamida qo'shish va ayirish



3. Sonli nurdan foydalanib, hisoblang:

$$5 + 7 - 3 + 4 - 2 + 1 - 3;$$


$$8 - 5 + 6 + 1 + 1 - 7.$$

Ifodalardagi birinchi son nimani bildiradi?

Har bir keyingi son amal belgisi bilan birga nimani bildiradi?



4. Aziza, Salima va Karima balet maktabida o'qishadi. Aziza O nuqtadan A nuqtaga sakradi, Salima B nuqtadan C nuqtaga sakradi, Karima esa D nuqtadan E nuqtaga sakradi. Kim eng uzoqqa sakragan?




5. Ifodalar tuzing.

Chiptaning narxi zaldagi joyga bog'liq. Jadvaldan foydalanib, chiptalarning narxini hisoblang.

Parter 1–5-qatorlar	100 000 so'm
Parter 6–10-qatorlar	80 000 so'm
Amfiteatr	70 000 so'm
Balkon 1-qavat	40 000 so'm
Balkon 2-qavat	30 000 so'm

- a) Parterning 4-qatoriga 4 ta chipta.
- b) Amfiteatrga 5 ta chipta.
- d) Balkonga 36 ta chipta (qavatini o'zingiz tanlang).
- e) Parterning 5-qatoriga 3 ta chipta, 6-qatoriga 4 ta chipta.



101. Sonli nur yordamida qo'shish va ayirish



6. "Qarsildoq" baleti ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism 55 minut, ikkinchisi esa undan 10 minut qisqaroq davom etadi. Agar spektakl 2 h 15 min davom etsa, tanaffus qancha davom etadi?



7. Hisoblang. Baletda ushbu holat qanday ataladi?

A $45 \cdot 32$

B $19 \cdot 52$

E $14 \cdot 55$

K $1\,404 : 9$

R $4\,496 : 8$

S $2\,660 : 7$




1 440	562	1 440	988	770	380	156
-------	-----	-------	-----	-----	-----	-----



8. Barcha nuqtalardan yopiq siniq chiziqni shunday o'tkazingki:

- a) barcha nuqtalar birlashsin;
- b) chiziq o'zini o'zi kesib o'tmasin;
- d) hech bir uchta qo'shni chiziq bir kesmada yotmasin.



9. Aziza A(12) nuqtaning sonli nurda qaysi tomonga necha qadam siljiganini yozib bordi. Sonli ifoda tuzib, A nuqta sanoq boshidan qancha masofada to'xtaganini toping.

A(12): $3 \rightarrow, 5 \leftarrow, 4 \rightarrow, 6 \rightarrow, 7 \leftarrow, 1 \leftarrow, 5 \leftarrow, 4 \rightarrow, 2 \rightarrow$.



10. Teatrning parterida 258 ta joy bor. Bu amfiteatrdagidan 36 ta ko'p, balkonlardagidan esa 78 ta ko'p. Teatrda jami nechta joy bor?